

BIZ O‘ZBEKISTON FUQAROLARIMIZ



Jamoad va umuman jamiyatda hamjihat bo‘lishimiz uchun biz nafaqat o‘z huquqlarimizni bilishimiz, balki bir qator burchlarimizni ham bajarishimiz shart va buni yoshlikdanoq anglab yetishimiz lozim. Ular haqida mamlakatimiz Konstitutsiyasida yozib qo‘yilgan.

Oila, undan keyin esa maktab hayotimizning ilk davridanoq bizni o‘z bag‘riga oladigan asosiy jamoalardir. Aynan ular orqali jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar haqida ilk amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lamiz.

Fuqaroning asosiy majburiyatlari

Vatanni himoya qilish

Bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni tarbiyalash

Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish

O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga bo‘ysunish

Boshqa odamlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish

Tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash



1. Sizning qanday burch va majburiyatlaringiz bor?
2. Ularni nima uchun bajarish kerak?



Mamlakatimiz fuqarolarining majburiyatlari haqida gapirib bering.

